

Xivaning Buxoro xonligi bilan siyosiy munosabatlari

Shuhratova Mashhura Aziz qizi

BuxDU 4-bosqich talabasi

Shodiyeva Shahlo Soliyevna

T.f.f.d (PhD), dotsent

***Annatsiya:** Ushbu maqolada Xiva xonligining Buxoro xonligi bilan olib borgan elchilik aloqalari, sulolaviy kurashlar, ikki o'zbek davlati o'rtasidagi hududiy da'volar, taxt uchun kurashlar hamda siyosiy o'yinlar xususida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Sulolaviy kurashlar, tashqi aloqalar, istilochilik yurishlari, ittifoqchilik harakatlari, Abdullaxon II yurishlari, markaziy hokimiyat, Buxoro-Xiva munosabatlari, Xiva – Eron aloqalari.*

XV asr o'rtalarida nafaqat Xiva xonligida balki qo'shni hududlarda ham hokimiyat uchun raqobat qiluvchi kuchlar nisbatida o'zgarish yuz bergandi. Bu davr mintaqada markaziy hokimiyatni mustahkamlash jarayoni ketayotgan bo'lib, davlatning boshqaruv tizimini va mamlakat ichki hayotini barqarorlashtirish hamda tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishga e'tibor qaratilgan. Natijada, Xiva xonligida o'zaro sulolaviy kurashlar nisbatan barham topgan. Bu holat Xiva xonligi taxtida 44 yil hukmronlik qilgan Hoji Muhammadxon davri (1558-1602) da ichki va tashqi siyosatda sezilarli yutuqlarga erishilishi bilan bog'liq edi. Shu bilan birga, Movarounnahrda markaziy hokimiyatni mustahkamlab keng istilochilik yurishlarini olib borgan Abdullaxon II (1557-1598) ning tashqi siyosati Buxoro xonligining Xorazm va Eron davlatlari bilan munosabatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Uning bu harakati Xiva-Eron aloqalarini mustahkamlashga turtki bo'lgan.

Manbalarda oliyjanob va bag'ri keng inson sifatida ulug'langan Hoji Muhammadxon (Hojimxon) aqlli, tajribali, adolatparvar va xudojo'y hukmdor

bo'lib, yaqinlari orasida shijoati va shon-shuhrati bilan alohida ajralib turgan¹. Shu bois Hojimaxon xonlik taxtiga munosib ko'rilgan edi. U qo'shni Buxoro , Rossiya va Eron bilan aloqalarni imkon darajasida mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan. Lekin bu aloqalarga ayrim siyosiy voqealar hamda manfaatlar to'qnashuvi ta'sirida putur yetganki, bu Xiva - Buxoro munosabatlarida ancha keskin namoyon bo'ldi.

Shu bilan birga Xorazm tarixiy manbalaridan farqli o'laroq Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixiga bag'ishlangan asarlarda Buxoro xoni Abdullaxon II faoliyatining boshlarida Xorazm sultonlari bilan ittifoqchilik harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan "Abdullanoma" asarida Abdullaxon II ning Balxdagi fitnachi kuchlarga bosh bo'lib chiqqan Faqir sulton va Din Muhammad sultonga qarshi yurishi hikoya qilinar ekan , Samarqand va Hisor bilan birga Xorazmga ham chopar yo'llab qo'shin so'rganligi qayd etilgan. Asarda ma'lum qilinishicha 1573-yil qishida turli viloyatlardan kelgan kuchlar qatorida Xorazm sultonlaridan Hojimaxonning o'g'li Suyunch Muhammad boshchiligidagi qo'shin ham bo'lgan².

"Tarixi Muqumxoniy" asarida esa Eron davlatiga qarshi Xiva- Buxoro ittifoqchiligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Xususan, Shoh Taxmaspning

¹Abulg'oziy. Shajarayi turk_-B.149-150. vafotidan so'ng Buxoro qo'shinlari Isfaroin fathi uchun yo'lga otlanganda Xorazm viloyatining hokimlari va sultonlari << haq qo'lga kirib , bizning qo'shinlarimizga kelib qo'shildi >> deb qayd etilgan manbada. Lekin Xorazm manbalari bu davrda Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi ziddiyatlar avj olganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan yuqoridagi ma'lumot mushohada qilib ko'rilsa , Abdullaxonning 1575-1578-yillarda Xorazmga uyushtirgan yurishida mag'lub bo'lgan Xiva xoni o'zining zimmasiga yuklangan majburiyat yuzasidan Eronga qarshi ittifoqchilik qilgan degan xulosaga kelish mumkin. Zero, Shoh Taxmasp hukmronligining oxirlarida , ayniqsa , uning vafotidan so'ng " 1576-yil Eronda Markaziy hokimiyat zaiflashib qolgan edi.

O'sha davrda kuchli markazlashgan davlatga aylanib borgan Buxoro xonligiga qarshi tura olmagan Xiva xoni uning Eron hududlariga uyushtirgan yurishida ittifoqchilik qilishga majbul bo'lganligi ehtimoli yaqindir.

Tez orada Buxoro xonligida markazlashgan davlat tashkil etgan Abdullaxon II o'z hududlarini kengaytirish maqsadida Xorazm yerlarini ham o'z tasarrufiga kiritish uchun jiddiy harakat boshlagan. "Abdullanoma" asarida Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, xususan, Abdullaxon II ga qarshi chiqqan isyonkor kuchlarning rahbarlari Bobo sulton va Sulton Said ga yordamga Xiva xonligidan yigirma minglik qo'shin kelganligi haqida ma'lumot beriladi. Xususan, asarda <<dushmanlarning qiyomatasar lashkaari Karmina qal'asi atrofiga yetgach xorazm sultonlaridan biri Lashkar bilan daryodan o'tib qal'a tomon yurdi>> deb hikoya qilinadi. Asarda qayd etilishicha ittifoqchilar qo'shini batamom yengilgan, Xorazm sultoni esa halok bo'lgan.

²Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma_-B-77.

Adabiyotlar

1. Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar). - T.: O'zbekiston, 1997.-142 b.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. - T.: SHarq, 2000. - 368 b.
3. Bayoniy. SHajarai Xorazmshohiy. - T.: Kamalak, 1991. - 104 b.
4. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - T.: SHarq, 1998. - 478 b.
5. Abulg'oziy. Shajarayi turk_-B.149-150
6. Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Abdullanoma_-B-77.